

obyektda kirish-chiqish va obyekt ichki tartibiga rioya etish, obyekt hududig belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish;

propusk rejimi mavjud bo‘lgan obyektda kun davomida nazoratdan o‘tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan obyektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarning chiqib ketishini ta’minlash;

obyektni qo‘riqlash vaqtida joydagi yong‘in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta’minlash;

obyektda yong‘in chiqishi yoki yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong‘in bo‘limiga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

obyektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va obyektning daxlsizligini ta’minlash;

yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va obyektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va obyektni qayta topshirish bo‘yicha ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo‘riqlash turlariga mos bo‘lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta’minlash;

obyektni qo‘riqlashga qabul qilganda va topshirganda obyektdagi texnik mustahkamlik bo‘yicha va qo‘riqlashning texnik vositalari bilan bog‘liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnik jihatdan mustahkamligini, qo‘riqlashning texnik vositalari bilan ta’minlanishini, jumladan yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko‘rigin o‘tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko‘rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnomaga talablarining har bir buzilishi bo‘yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko‘rish uchun berish;

qo‘riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka etkazilgan zarar to‘g‘risida Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati navbatchi qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati vakili etib kelgunga qadar hodisa yuz bergen joyning daxlsizligini ta’minlash.

5-bob. Tomonlarning javobgarligi

17. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko‘rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o‘z vaqtida to‘lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

18. Ijrochining xodimi postda va patrul yo‘nalishlarida bo‘limganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to‘laydi, biroq bunda ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

19. Penyani to‘lash Buyurtmachi va Ijrochini o‘z majburiyatlarini buzish oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

20. Ijrochi mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga etkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo‘ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar etkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to‘liq miqdorda qoplanadi.